

## HARAKATLI O'YINLARDAN FOYDALANISH MEXANIZMI SHAKLLANTIRISH

*Erkaboyev Oybek Muxammadjonovich*

*Farg'ona davlat universiteti*

*1.Gmail: [oerkaboyev@gmail.com](mailto:oerkaboyev@gmail.com)*

Jamiyat rivojlanishining hozirgi bosqichida barkamol insonni tarbiyalash eng asosiy, kechiktirib bo'lmaydigan muhim vazifalardan biridir. Prezidentimiz SH.Mirziyoyevning 2017- 2021 yillarda O'zbekiston Respublikasining rivojlantirishning harakatlar strategiyasi 4.4. bandida o'quvchilarni jismoniy rivojlanishi borasida qator asosli fikrlar keltirilgan[1].

Shu jihatdan olganda, mamlakatimizda sog'lom avlod dasturi harakatining keng tus olgani, ta'limtarbiya tizimining tubdan isloh etilayotgani ham ana shu ulug'vor vazifani amalga oshirish yo'lidagi muhim qadamlardandir. Huquqiy demokratik davlatimiz, ochiq fuqarolik jamiyatining eng ustuvor yo'nalishlaridan biri sanalmish ta'lim sohasida olib borilayotgan islohotlarning asosiy maqsadi, bu jarayonning sifati va samaradorligini oshirishga karatilgan tadbirlar majmuasidan iborat. Shu boisdan, mamlakatimizda yosh avlodning tarbiyasiga, sog'ligiga alohida e'tibor qaratila boshlandi.

Prezidentimiz tomonidan 5 ta tashabbusni ilgari surilishi o'quvchilarning bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazish va foydali mashg'ulotlar bilan ta'minlash, yoshlarning jismoniy kamoloti masalasiga alohida e'tibor qaratilgan. Kuzatish va tajribalarning tahlillari shuni ko'rsatadiki, boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun jismoniy tarbiya yosh avlodni taraqqiy ettirishda muhim vosita hisoblanadi[2]. Tana a'zolarining mo'tadil faoliyati uchun harakat juda zaruriydir.

Buyuk hakim, mutafakkir Abu Ali ibn Sino: «Badan tarbiya-sog'liqni saqlashda ulug'vor usuldir» - deydi, bu fikr xalq pedagogikasidagi: «Kimki qilsa harakat-sog'ligida bo'lar barakat» degan naqlni eslatadi. Jismoniy tarbiyaga e'tiborni kuchayganligini umumiy o'rta ta'lim maktab o'quvchilari o'rtasida «Umid nihollari» sport musobaqalarining tashkil etilganligi va muntazam o'tkazilib kelinayotganligida, yoki sportning ko'plab turlari bo'yicha O'zbekistondan Olimpiada va jahon chempionlari yetishib chiqib, mamlakatimiz dovrug'ini butun dunyoga tarannum etishida ham ko'rish mumkin.

Bundan tashqari barcha maktablarda, mahallalarda ham turli sport musobaqalari tashkil etilmoqda, ayrim oilaviy musobaqalar ham o'tkazish yo'lga qo'yilib borilmoqda. Jismoniy tarbiya-bu sof sport musobaqalaridan iborat bo'lgan soha emas. Bu tarbiya orqali bolalarda ko'plab axloqiy-irodaviy xislatlar tarkib toptiriladi.

Mashqlarni bajarish davomida bolalarda iroda, tezlik, chaqqonlik, chidamlilik tarbiyalanadi, ularning sog'ligi mustahkamlanadi, ish qobiliyatlari, aqliy faolligi oshiriladi, jasurlik, halollik, qat'iylik, mustaqillik kabi axloqiy xulq meyorlari tarkib topadi, yetuklik sari qadam tashlanadi[3] Harakatli o'yinlar orqali shakllantirish jamiyatimizdagi madaniy-ma'rifiy sohalarida ilgari bosilgan qadam bo'lib hisoblanadi. Harakatli o'yinlarning xilma-xilligi ularni o'quv-tarbiya jarayonining juda ko'p sohalarida qo'llash imkonini beradi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilariga jismoniy tarbiya darslarida harakatli o'yinlardan foydalanishning maqsadi har tomonlama yetuk: chiniqqan, sof fikrli, mard, sabotli, qat'iyatli, kelajakda Vatanni himoya qila oladigan shaxslarni kamol toptirishdan iborat.

Shu nuqtai nazardan, umumiy o'rta ta'lim maktablarining boshlang'ich sinflarida harakatli o'yinlardan foydalanishning didaktik asoslarini yaratish ta'lim-tarbiya mazmunini yangilash va boyitish mavzui doirasida muhim ahamiyat kasb etadi, xususan, jismoniy tarbiya darslarida xalq pedagogikasida keng talqin qilingan milliy harakatli o'yinlardan foydalanish masalalarining bugungi kunda salmoqli ahamiyatga ega bo'lib borishi qonuniy va zaruriy bo'lib, uning dolzarbligi quyidagilar bilan izohlanadi: -birinchidan, ijtimoiy hayotimizning barcha sohalaridagi singari ta'lim tizimining barcha bosqichlarida, jumladan, umumiy o'rta ta'lim maktablarining boshlang'ich sinflarida o'quvchilarga zamon talablari va jahon andozalari asosida jismoniy sifatlarni shakllantirish bilan birga, ularda yuksak ma'naviy madaniyat, axloq va ma'rifat fazilatlarini singdirish va tarbiyalash muammolarining yechimini davr taqozo etishi; -ikkinchidan, jismoniy va ruhiy jihatdan sog'lom, Vatan sarhadlarini himoya qilish uchun jismonan chiniqqan, fidoyi insonni tarbiyalash, ta'lim va maorif tizimini takomillashtirish, milliy istiqlol g'oyasi asosida ma'naviy va ruhiy jihatdan yangi avlodni voyaga yetkazishga ijtimoiy zarurat tug'ilishi; -uchinchidan, ta'lim jarayonida qo'llaniladigan harakatli o'yinlarning o'quvchilar yoshi va ularning gender xususiyatlarini inobatga olish zaruratining tug'ilishi.

Xulosa tariqasida shuni ta'kidlash joizki boshlang'ich sinf o'quvchilarini harakatli o'yilar mexanizimini ta'komillashtirishda nafaqat o'quvchilarning jismoniy rivojlanishi va jismoniy tayyorgarligiga, shuningdek, ularning gender xususiyatlarini hisobga olish muhim ahamiyat kasb etadi.

### **FOYDANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида” ги фармони
2. Одилжон Жалолидинович Дадабаев. [Эффективность оптимизации планирования подготовки юных спортсменов по спортивным единоборствам.](#) Актуальные проблемы совершенствования системы непрерывного

физкультурного образования: Материалы IV международной научно-практической конференции. Грозный, 24 сентября 2020 года.

3. О.Ж. Дадабаев. [Особенности развития специальной выносливости дзюдоистов](#). XIX научно-практическая конференция, посвящённая памяти профессора Е.М. Чумакова. 2020/2. 91.

4. О.Ж. Дадабаев. [Применение специальной физической подготовки в учебно-тренировочном процессе дзюдоистов](#). Научно-исследовательский институт физической культуры и спорта. 2020. 15-17.

5. О.Ж. Дадабаев. [Планирование общей и специальной физической подготовки в годичном цикле тренировочного процесса в дзюдо](#). Academic research in educational sciences. 2021. 302-308.

6. О.Ж. Дадабаев. [Общая и специальная физическая подготовка в годичном цикле тренировочного процесса в дзюдо](#). Актуальные проблемы физической культуры и спорта в современных социально-экономических условиях. 2023. 37-41

7. Odiljon Zhalolidinovich Dadabaev. Methodology For Detecting Level Of Student Satisfaction With Quality Of Educational Process. 2022/12/23. 60-63.

8. Одилжон Дадабаев. Modeling of the educational and training process and competitive activity of young judoists. O'zbekiston milliy universiteti xabarлари, 2021, [1/6/1] issn 2181-7324

9. О.Ж. Дадабаев. [МЕТОДИКА ПОВЫШЕНИЕ ФИЗИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВЛЕННОСТИ ЮНЫХ ДЗЮДОИСТОВ](#). Academic research in educational sciences. 2021. 1199-1205

10. О.Ж. Дадабаев. [Обоснование эффективных средств юных дзюдоистов на этапе начальной спортивной специализации foundation of effective means of young judo wrestlers at the preliminary-training stage](#). ББК 75.1 А-43 Ответственный редактор. 2023. 37-41.

11. О.Ж. Дадабаев. [ЮҚОРИ МАЛАКАЛИ ДЗЮДОЧИЛАРДА ЎҚУВ-МАШҒУЛОТ ЖАРАЁНИНИ РЕЖАЛАШТИРИШ ХУСУСИЯТЛАРИ](#). Научно-исследовательский институт физической культуры и спорта. 2020. 20-23

12. О.Ж. Дадабаев. [НЕКОТОРЫЕ АСПЕКТЫ МОРФОФУНКЦИОНАЛЬНЫХ ПОКАЗАТЕЛЕЙ ОРГАНИЗМА ЮНЫХ ДЗЮДОИСТОВ В ПРОЦЕССЕ ПЛАНИРОВАНИЯ ТРЕНИРОВОЧНОГО ПРОЦЕССА](#). Боевые искусства и спортивные единоборства: наука, практика, воспитание. 2019. 116-121

13. O.Erkaboyev, O. G'aniyev. [Globallashuv sharoitida yoshlarning "ommaviy madaniyat" tahdidiga qarshi kurashi](#). international conference dedicated to the role and importance of innovative education in the 21st century. 2022.12.25

14. O.Erkaboyev, I. Mamatqulov. Ma'naviy tahdid - yosh avlod kelajagiga tahdid. international conference dedicated to the role and importance of innovative education in the 21st century. 2022.12.25

15. O.Erkaboyev, G.Qurbonova. [Ichkilikbozlik, kashandalik va giyohvandlik yoshlarning aqliy va jismoniy kamoloti kushandasi](#). PEDAGOG, 2023. 62-63

16. O.Erkaboyev, D.Tursunova. [Aqliy tarbiyasini shakllantirishda sharq allomalari qarashlaridan foydalanish](#). PEDAGOG, 2023. 59-61

17. Erkaboyev.O.M. [Armiya safida xizmat qilishga tayyorlash bosqichida jismoniy tarbiyaning ijtimoiy mohiyati](#). Ta'lim fidoyilari-2022. № 3. С. 138-141
18. О.М. Эркабоев. [Жисмоний тарбия ва Чақирувга қадар бошланғич тайёргарлик фанлари бўйича тажриба дастурини тузиш тамойиллари](#). Ta'lim fidoyilari-2022. № 13. С. 4-8
19. О. Эркабоев. [Физическое воспитание и спорт в допризывной подготовке](#). Ta'lim fidoyilari, 2022. 70-74
20. O.Erkaboyev. [O'smirlarni armiya safida xizmat qilishga tayyorlash bosqichida jismoniy tarbiya va chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik integratsiyasi](#). Ta'lim fidoyilari, 2022. 73-79
21. О.М. Эркабоев. [Наука в системе высших школ Республики Узбекистан](#). Архивариус. с 24-27
22. O.Erkaboyev. [Determination of the physical status of secondary school students through sociological research](#). Berlin Studies Transnational Journal of Science and 2022. 1-5
23. O.Erkaboyev, ME Abdujannonovich . [YOSHLAR ONGIDA MILLIY MAFKURAVIY IMMUNITETNI SHAKLLANTIRISHDA MA'NAVIYAT VA QADRIYATLARNING O'RNI](#). TADQI QOTLAR, 2023/4/4. 40-43